

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNYIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ISSUES OF APPLYING THE PRINCIPLE OF HUMANISM IN THE QUALIFICATION OF CRIMES RELATED TO VIOLATIONS OF TRAFFIC SAFETY OR THE OPERATION OF VEHICLES IN CASES INVOLVING CLOSE RELATIVES

Majidov Islomjon Dilshod o'g'li,

Master's Student at the Law

Enforcement Academy

E-mail: islomjonmajidovv@gmail.com

Abstract. Currently, an increase in the number of road traffic accidents is being observed in our country. This article analyzes issues of criminal liability предусмотрен under Article 266 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. In particular, the objective and subjective elements of this crime, as well as circumstances significant for its qualification, are scientifically examined. Additionally, the article analyzes problems related to cases where the victim in road traffic accidents is a close relative of the виновный driver, and puts forward substantiated proposals and recommendations for addressing these issues.

Keywords: road traffic safety, criminal liability, road traffic accidents involving close relatives, crime qualification, legal foundations for ensuring road traffic safety.

YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI

Majidov Islomjon Dilshod o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Hozirgi kunda mamlakatimizda yo'l-transport hodisalarining soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlik masalalari tahlil qilingan. Jumladan, ushbu jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari, shuningdek uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo'lgan holatlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Shu bilan birga, maqolada sodir etilgan yo'l-transport hodisalarida jabrlanuvchining aybdor haydovchiga yaqin qarindosh bo'lishi bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan asosli taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yo'l harakati xavfsizligi, jinoiy javobgarlik, yaqin qarindoshlar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N45>

Kirish. Transport vositalari zamonaviy jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular insonlarning harakatlanishi, yuk tashish, iqtisodiy aloqalarni ta'minlash hamda hududlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda, transport infratuzilmasining jadal rivojlanishi va avtotransport vositalari sonining ortishi jamiyatda bir

qator yangi muammolarni, jumladan, yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq tahdidlarni yuzaga keltirmoqda.

Ma'lumki, transport vositalari o'z tabiatiga ko'ra yuqori xavf manbai hisoblanadi. Ulardan noto'g'ri yoki ehtiyotsiz foydalanish inson hayoti va sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazishi, og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xususan, yo'l harakati qoidalariga rioya etmaslik natijasida yuzaga kelayotgan yo'l-transport hodisalari nafaqat moddiy zarar, balki insonlar o'limi va jarohatlanishi kabi og'ir ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa mazkur sohada huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan davlat tomonidan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, ushbu sohada huquqbuzarliklarning oldini olish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish hamda jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu borada jinoyat-huquqiy vositalar muhim o'rin tutadi, chunki aynan ular orqali eng xavfli huquqbuzarliklarga nisbatan ta'sir choralari qo'llaniladi.

Shu bilan birga, transport vositalari harakati xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida muayyan murakkab holatlar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, yaqin qarindoshlar ishtirok etgan holatlarda sodir etilgan yo'l-transport hodisalarida jinoyatga huquqiy baho berishda nafaqat formal-yuridik, balki axloqiy va ijtimoiy omillarni ham inobatga olish talab etiladi. Bunday holatlarda insonparvarlik prinsipini qo'llash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Insonparvarlik prinsipi jinoyat huquqining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, u shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilish, jazo tayinlashda uning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy holatini hisobga olishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, yaqin qarindoshlar bilan bog'liq holatlarda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda mazkur prinsipni to'g'ri va asosli qo'llash, bir tomondan, adolatni ta'minlashga, ikkinchi tomondan esa, jinoyat huquqini gumanizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Shuning uchun mazkur tadqiqot transport vositalari harakati xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda insonparvarlik prinsipini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning natijalari qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Yo'l harakati qoidalarini buzish ko'p hollarda kichik huquqbuzarlik sifatida qabul qilinsa-da, ayrim holatlarda bu harakatlar og'ir oqibatlariga olib keladi. Har yili minglab insonlar yo'l-transport hodisasi natijasida turli darajada tan jarohatlari oladi yoki vafot etadi. O'zbekistonda sodir etilgan yo'l-transport hodisalarini tahlil qiladigan bo'lsak, respublikamizda 2023 yilda 9.839 ta yo'l-transport hodisalari sodir etilib, 9.209 nafar fuqarolar tan jarohatlari olgan va 2.282 nafar fuqarolar halok bo'lgan [1]. 2024 yilda 9364 ta yo'l-transport hodisalari sodir etilib, 8901 nafar fuqarolar tan jarohati olgan va 2199 kishi vafot etgan [2]. 2025 yilda 9.226 ta yo'l-transport hodisalari sodir etilib, 8.901 nafar fuqarolar tan jarohatlari olgan va 2.188 nafar fuqarolar halok bo'lgan [3]. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga tayanib ma'lum qilinishicha, YTHlar odam o'limining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi JKsining 266-moddasida nazarda tutilgan. 266-modda bo'yicha jinoyat subyekti — 16 yoshga to'lgan va transport vositasini boshqaruvchi aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

Jinoyat huquqida aybdorlik jinoyat tarkibining subyektiv tomon elementi sifatida qaraladi. Jinoyat tarkibida subyektiv tomonning bo'lmashligi jinoiy javobgarlikni istisno qiladi[4]. Yo'l-transport hodisalari ehtiyotsizlik orqali sodir etilib, bunda haydovchi o'ziga ishonib transport vositasini yuqori tezlikda boshqaradi, svetoforning taqiqlovchi chirog'ida chorrahaga kirib boradi, mast holatda transport vositasini boshqaradi, piyodalarga yo'l bermasdan harakatlanadi va boshqa yo'l-harakati qoidalariga rioya etmasdan harakatlanishi natijasida sodir bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 19-moddasiga ko'ra, jinoyat shaxsning aybli qilmishlari orqali sodir etilgan taqdirdagina jinoyat hisoblanadi. Aybsiz shaxs javobgarlikka tortilmaydi [5].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi JKning 266-moddasiga asosan, transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazsa yoxud odam o'limi, boshqa og'ir oqibatlariga olib kelsa, jinoiy javobgarlik yuzaga keladi [6].

Yo'l-transport hodisalarida aybdorlik masalasi boshqa jinoyatlardan farq qiladi. Chunki haydovchining aybdorlik masalasini hal qilishda yo'l harakati qoidalarini buzganligini aniqlash hamda haydovchining harakatlari sodir bo'lgan YTH bilan sababiy bog'lanishda ekanligini aniqlash shart. Haydovchining aybdorligini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- Haydovchining harakatlarida ehtiyotsizlik shaklida ayb mavjudligi;
- Haydovchining yo'l harakati qoidalarini buzganligi;
- Haydovchining harakatlari va sodir bo'lgan YTH o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi.

YTHlarda aybdorlikni belgilash quyidagi huquqiy manbalar asosida amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (266-modda);
- Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks;
- "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun;
- Sud amaliyoti va Plenum qarorlari;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

Aybdorlikni aniqlash nafaqat haydovchining javobgarlikka tortilishi, balki jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, javobgarlikni muqarrarligini ta'minlash nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

Yaqin qarindoshlar jabrlanuvchi bo'lgan holatlarda aybdorlikni aniqlash muammolari. Yaqin qarindoshlar jabrlanuvchi sifatida qatnashgan YTHlarda qator huquqiy va psixologik muammolar yuzaga keladi:

1. Huquqiy jihatdan – qarindoshlik munosabatlari javobgarlikni bekor qilmaydi, qonun oldida barcha teng[7].

2. Amaliyotda – jabrlanuvchining aybdor haydovchiga yaqin qarindoshligi aybdorlikni yo'qotuvchi asos emas, ammo jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holat sifatida baholanmoqda.

3. Psixologik jihatdan – sodir bo'lgan YTH oqibatida haydovchining yaqin qarindoshi og'ir tan jarohati olishi yoki vafot etishi haydovchining ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, inson hayoti va sog'lig'ini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi YTH oqibatlarini huquqiy

jihatdan to'g'ri baholash va jazo tayinlashda JKning 7-moddasiga asosan insonparvarlik prinsipini qo'llab aybdor haydovchiga jazo tayinlash dolzarb masala hisoblanadi. Amaliyotda yo'l-transport hodisasi natijasida yaqin qarindoshi vafot etgan bo'lsa, haydovchi tushkunlikka tushib qoladi. Bu haydovchiga sodir etgan yo'l-transport hodisasi uchun jazoday tuyuladi. O'zbekiston Respublikasi JKning 42-moddasi 2-qismiga asosan «jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi» deb ko'rsatilgan. Toshkent viloyatining tuman-shahar sudlari tomonidan marhum jabrlanuvchi aybdor haydovchining yaqin qarindoshi bo'lgan yo'l-transport hodisalari yuzasidan chiqarilgan hukmlari tahlil qilinganda ba'zi aybdor haydovchilarga nisbatan tergov davrida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i qo'llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi berilayotganligi aniqlangan. Misol uchun, 2024-yil 7-may kuni JIB Bo'stonliq tuman sudi tomonidan chiqarilgan hukmiga ko'ra, haydovchi Sherimov Bobur Rustamovichni ukasi I.Sherimov vafot etganligi yuzasidan JKning 266-moddasi 2-qismi bilan aybdor deb topilib, unga nisbatan 4 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan[8]. Shuningdek, 2025-yil 11-sentyabr kuni JIB Qibray tuman sudi tomonidan chiqarilgan hukmiga ko'ra, haydovchi Xalilxojayev Olimxoja Artikxojayevichni onasi Z.Xalilxo'jayeva vafot etganligi yuzasidan JKning 266-moddasi 2-qismi bilan aybdor deb topilib, unga nisbatan 3 yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan. Lekin haydovchi O.Xalilxo'jayevga tergov davrida uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan [9]. Ushbu ikkala holatlarda sodir etilgan yo'l-transport hodisasi natijasida haydovchining yaqin qarindoshi vafot etganda haydovchiga nisbatan tergov davrida uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilishi yoki jazo sifatida ozodlikni cheklash jazosi qo'llanilishi insonparvarlik prinsipiga to'g'ri keladimi degan savol tug'iladi. Chunki yo'l-transport hodisasi oqibatida haydovchining yaqin qarindoshi og'ir tan jarohati olishi yoki vafot etishi holatlari haydovchining ruhiy holatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa haydovchi tomonidan chuqur aybdorlik hissi va ruhiy izzitroblarni keltirib chiqarib, ayrim hollarda psixologik jazo sifatida ham talqin qilish mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak. Jazolashdan ko'zlangan maqsadga ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo'llash orqali erishib bo'lmaydigan taqdirdagina og'irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin» deb ko'rsatilgan.

III. Xorijiy davlatlar amaliyoti va qiyosiy tahlil

Qozog'iston Respublikasi: JK 345-moddasida transport vositalarini boshqaruvchi shaxslar tomonidan yo'l harakati qoidalarini yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish uchun javobgarlik belgilangan, lekin JKning 68-moddasida yo'l-transport hodisasi natijasida ehtiyotsizlik bilan yaqin qarindoshlari yoki turmush o'rtog'ining o'limiga sabab bo'lgan holatda haydovchi agar u jabrlanuvchi yoki ariza beruvchi bilan, jumladan mediatsiya tartibida yarashsa va yetkazilgan zararni qoplasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin[10].

Belorussiya Respublikasi: JK 317-moddasiga ko'ra transport vositasini boshqarayotgan shaxs tomonidan yo'l harakati qoidalarini yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzilishi, ehtiyotsizlik oqibatida yengil, og'ir tan jarohati yetkazilishi yoki odam o'limiga sabab bo'lsa jinoiy javobgarlik belgilangan [11]. Lekin Belorussiya JPKning 26-moddasini

4-qismiga ko'ra JKning 317-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan, ehtiyotsizlik orqali og'ir tan jarohati yetkazishga olib kelgan jinoyatlarda, agar ular jabrlanuvchining oila a'zolari, yaqin qarindoshlari yoki u asosli ravishda yaqin deb hisoblaydigan boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, ushbu jinoyat ishi xususiy-ommaviy ayblov ishlari hisoblanadi hamda faqat jinoyatdan jabrlangan shaxsning, uning qonuniy vakili yoki yuridik shaxs vakilining arizasi asosida qo'zg'atilishi belgilab qo'yilgan [12].

Turkiya Respublikasi: JKda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish uchun alohida moddada javobgarlik nazarda tutilmagan, JKning 85-moddasida ehtiyotsizlik bilan bir insonning o'limiga sabab bo'lsa jinoiy javobgarlik belgilangan hamda JKning 89-moddasida ehtiyotsizlik bilan boshqa shaxsning badaniga og'riq yetkazgan yoki uning sog'lig'i yoki idrok qilish qobiliyati buzilishiga sabab bo'lsa javobgarlik belgilangan. Lekin JKning 22-moddasining 6-qismida ehtiyotsiz harakat natijasida yuzaga kelgan oqibat aybdorning shaxsiy va oilaviy ahvoli nuqtai nazaridan uni shunchalik darajada jabrlanuvchiga aylantirgan bo'lsaki, qo'shimcha ravishda jazo tayinlashga hojat qolmasa, jazo tayinlanmaydi va ongli ehtiyotsizlik holatida esa tayinlanadigan jazo yarmidan oltidan birigacha kamaytirilishi mumkinligi ko'rsatilgan [13].

Xorijiy davlatlar qonunchiligining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, yo'l-transport hodisalarida ehtiyotsizlik orqali yetkazilgan zarar, ayniqsa yaqin qarindoshlar doirasida sodir etilgan holatlarda, jinoiy javobgarlik masalasiga nisbatan bir qator davlatlarda differensial va insonparvar yondashuv qo'llaniladi.

Jumladan, Qozog'iston Respublikasi amaliyotida yarashuv instituti va yetkazilgan zararni qoplash orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyati nazarda tutilgan bo'lib, bu mexanizm taraflar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tiklashga xizmat qiladi. Belorussiya Respublikasi qonunchiligida esa bunday turdagi jinoyatlar ayrim holatlarda xususiy-ommaviy ayblov ishlari sifatida baholanib, ish qo'zg'atilishi jabrlanuvchi irodasiga bog'liq qilib qo'yilgan. Turkiya Respublikasida esa aybdor shaxsning oilaviy va shaxsiy ahvoli, shu jumladan u o'zi ham ma'lum darajada jabr ko'rgan holatlar inobatga olinib, jazo tayinlanmasligi yoki yengillashtirilishi mumkinligi belgilangan.

Mazkur yondashuvlar umumlashtirilganda, ularda quyidagi umumiy tendensiyalar kuzatiladi:

- jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini individual baholash;
- jabrlanuvchi irodasini ustuvor ahamiyatga ega deb e'tirof etish;
- yaqin qarindoshlik munosabatlarini huquqiy baholashda hisobga olish;
- jazolashdan ko'ra, ijtimoiy adolat va kelishuvni ta'minlashga ustuvorlik berish.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida ham yo'l-transport hodisalarini bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha amaldagi normalarni takomillashtirishda insonparvarlik, adolat va proporsionallik tamoyillarini yanada kuchaytirish zarurligi asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi 4-qismini takomillashtirish nuqtai nazaridan, yaqin qarindoshlar ishtirokida sodir etilgan yo'l-transport hodisalariga nisbatan jazo qo'llash masalasi alohida huquqiy yondashuvni talab qiladi. Amaldagi qonunchilikda mazkur turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda insonparvarlik tamoyilini kuchaytirish zarurati kuzatiladi.

Shu munosabat bilan, agar yo'l-transport hodisasi natijasida jabrlanuvchi shaxs yoki uning qonuniy vakili tomonidan haydovchiga nisbatan da'vo mavjud bo'lmasa, ayniqsa ular

o'rtasida yaqin qarindoshlik munosabatlari mavjud bo'lgan hollarda, jinoiy javobgarlikning qat'iy jazo choralari — jumladan, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish kabi sanksiyalarni qo'llamaslik maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunday yondashuv, bir tomondan, jinoyat huquqidagi adolat va insonparvarlik prinsiplarini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, oilaviy munosabatlar doirasida yuzaga kelgan mojarolarni keskinlashtirmaslik va ularni ijtimoiy jihatdan yumshatishga qaratilgan. Shuningdek, mazkur holatda davlatning jazolash funksiyasidan ko'ra, ijtimoiy kelishuv va taraflarning irodasini inobatga olish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi 4-qismini quyidagi mazmunda to'ldirish maqsadga muvofiq: yaqin qarindoshlar ishtirokida sodir etilgan yo'l-transport hodisalarida, agar jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili tomonidan haydovchiga nisbatan da'vo bildirilmagan bo'lsa, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llanilmaydi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yo'l-transport hodisalarini bilan bog'liq jinoyatlarda, ayniqsa yaqin qarindoshlar o'rtasida sodir etilgan holatlarda, jinoiy javobgarlikni belgilash va jazo tayinlash masalalariga nisbatan differensial, adolatli hamda insonparvar yondashuvni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Qarindoshlik munosabatlarining huquqiy ahamiyatini qayta baholash. Jinoyat huquqida qarindoshlik munosabatlarini aybdorlikni istisno etuvchi (ya'ni jinoiy javobgarlikni bartaraf etuvchi) holat sifatida emas, balki jazoni individuallashtirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, shaxsning aybi va uning shaxsiy holatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur omil sud tomonidan jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi lozim.

2. Yaqin qarindoshlar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini alohida statistik hisobga olish. Amaliyotda mazkur toifadagi ishlarning alohida hisobga olinmasligi ularning huquqiy tabiati va ijtimoiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini cheklaydi. Shu bois, yaqin qarindoshlar ishtirokida sodir etilgan yo'l-transport hodisalarini alohida statistik kategoriya sifatida yuritish maqsadga muvofiq. Bu esa kelgusida qonunchilikni takomillashtirish, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va huquqni qo'llash amaliyotini samarali tashkil etish uchun zarur empirik bazani shakllantiradi.

3. Jinoyat kodeksiga qo'shimcha normalar kiritish orqali jazo siyosatini liberallashtirish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga tegishli qo'shimcha va o'zgartishlar kiritib, agar yo'l-transport hodisasi natijasida jabrlanuvchi shaxs aybdor haydovchiga yaqin qarindosh bo'lsa va u (yoki uning qonuniy vakili) tomonidan da'vo bildirilmagan bo'lsa, aybdorga nisbatan ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolarini qo'llamaslikni nazarda tutuvchi normani O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Mazkur norma, bir tomondan, insonparvarlik va adolat tamoyillarini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, oilaviy munosabatlar doirasida yuzaga kelgan ijtimoiy nizolarni yanada chuqurlashtirmaslikka xizmat qiladi.

Taklif etilgan yondashuvlar jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, jazoni individuallashtirish mexanizmlarini kuchaytirish va insonparvarlik tamoyillarini amaliyotga

keng joriy etishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini muvozanatli himoya qilish hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://senat.uz/oz/post/post-2179>.
2. <https://onews.uz/yangiliklar/2025-yili-yth-larda-halok-bolgan-va-jabrlanganlar-soni>
3. <https://onews.uz/yangiliklar/2025-yili-yth-larda-halok-bolgan-va-jabrlanganlar-soni>
4. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - 2021- B. 39
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025. – Modda 19.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025. – Modda 266.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: Adolat, 2025. – 18-modda
8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025. – Modda 42
9. <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>. Jinoyat ishi raqami 1-1106-2401/142
10. <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>). Jinoyat ishi raqami 1-1107-2503/262
11. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226>
12. <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>
13. <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900295>
14. <https://www.mevzuat.gov.tr/mevzuat?MevzuatNo=5237&MevzuatTur=1&MevzuatTertip=5>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).